FARG‘ONA VILOYAT
STATISTIKA BOSHQARMASI





# FARG‘ONA VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQARISHI

***2022-YIL YANVAR-MART***
***(DASTLABKI MA’LUMOT)***



## Farg‘ona viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

*(2022-yil yanvar -mart oylarida)*

Dastlabki ma’lumotlar bo‘yicha 2022-yilning yanvar-mart oylarida Farg‘ona viloyati korxonalari tomonidan 6 266,5 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2021-yilning yanvar-mart oyiga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 106,6 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to‘g‘ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 92,5%ni tashkil etdi.

| | | | |
|---|---|---|---|
| 0,5% | 92,5% | 6,3% | 0,7% |
| **B** | **C** | **D** | **E** |
| Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash | Ishlab chiqaradigan sanoat | Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash | Suv bilan ta’minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish |

### Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* %da

| | 2021-yil yanvar-mart | 2022-yil yanvar-mart |
|---|---|---|
| B | 60,6% | 62,5 % |
| C | 94,5% | 104,4 % |
| D | 106,3% | 134,9 % |
| E | 70,3% | 101,3 % |

**Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o‘zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko‘rsatkichdir.*

*Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o‘sishining asosiy omili bo‘lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoat 22,6 %ga o‘sishi kuzatildi.*

## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati




*Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2022-yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 28,4 mlrd so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,5 %ini tashkil etdi.*

**Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, foizda**



## Ishlab chiqaradigan sanoat




*2022-yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 5798,8 mlrd. so‘mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 92,5 %ini tashkil etdi.*

**2021-yil yanvar-mart** — 92,9 %

**2022-yil yanvar-mart** — 92,5%

*O‘tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,3 %ni (2021-yilning yanvar oylarida – 0,2 %), o‘rta-yuqori texnologiyali – 10,1 % (10,2 %), o‘rta-quyi texnologiyali – 22,4% (25,3%) va quyi texnologiyalisi – 59,7% (57,2%)ni tashkil etdi.*



*Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob- uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 5,5 % (2021-yilning yanvar-mart oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 127,9%), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 46,8% (2021-yilning yanvar-mart oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 112,3 %), oziq-ovqat, ichimlik mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 13,4% (2021-yilning yanvar-mart oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 84,6%), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 8,9 % (2021-yilning yanvar–mart oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 98,6 %)ni tashkil etdi.*

## Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning ishlab chiqarish hajmlari


















Neft bitumi ming t




Aroq ming litr 100% spirt




Uzum vinosi ming l




Karbamid, ming tonna




Paxta chigiti , ming tonna




Paxta linti ming t




*2022-yilning yanvar-mart oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 49,5 ming tonna avtomobil benzini (2021-yilning yanvar-mart oyiga nisbatan 6,25%ga kamaygan ), 70,4 ming tonna dizel yoqilg`isi (1,4 % kamaygan), 31,8 ming. tonna kalava ip mahsulotlari (14,3%ga ortgan) hamda 16537,1 ming kv metr paxtadan tayyorlangan matolar (6,8%ga kamaygan) ishlab chiqarilgan.*

## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2021-yil yanvar-mart | 2022-yil yanvar-mart | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| | | | |
| Avtomobil benzini, ming t | 52,8 | 49,5 | -3,3 |
| Yumshoq bug‘doy va spelta uni, ming t. | 65,1 | 55,6 | -9,5 |
| Paxta tolasi, ming t. | 17,3 | 19,8 | 2,5 |
| O‘simlik yog‘i (tozalangan), ming t. | 9,8 | 3,5 | -6,3 |

# Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish




**Karbamid** *Ming. t*

| 2021-yil | 2022-yil |
|---|---|
| 20,8 | 10,6 |



**Dizel yoqilg‘isi** *Ming. t*

| 2021-yil | 2022-yil |
|---|---|
| 71,4 | 70,4 |




**Portlandsement** *. t*

| 2021-yil | 2022-yil |
|---|---|
| 214,6 | 158,6 |




**Etil spirti** *Ming. l*

| 2021-yil | 2022-yil |
|---|---|
| 5001,0 | 2868,0 |

*Farg‘ona viloyatida 2022-yil yanvar-mart oylarida jami 10,6 ming tonna karbamid mahsuloti ishlab chiqarildi. Shuningdek dizel yoqilg‘isi ishlab chiqarish 70,4 ming tonna , portlandsement ishlab chiqarish 158,6 ming tonna . Etil spirt ishlab iqarish 2868,0 ming litrni tashkil etgan .*

## Metallurgiya sanoati

*Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021-yilning yanvar-mart oylarida metallurgiya sanoati 18,9mlrd so‘mni yoki jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmining 0,4 %ni, 2022-yilning yanvar-mart oylarida metallurgiya sanoati 22,9 mlrd. so‘mni yoki jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmining 0,4%ni tashkil etdi.*




## Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish




*Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021-yilning yanvar-mart oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish 541,4 mlrd so‘mni yoki jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmining 11,4 %ni tashkil etgan, 2022-yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko‘ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar sanoati 609,2 mlrd so‘mni tashkil etdi va jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmidagi ulushi 10,5 %ni tashkil etdi.*

## Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

*Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021-yilning yanvar-mart oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 846,7 mlrd so‘mni, joriy 2022-yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko‘ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 762,5 mlrd so‘mni tashkil etdi, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan jami oziq ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 10,0 %ga kamaygan.*



## Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

*Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021-yilning yanvar-mart oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish 17,5 mlrd. so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2022-yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko‘ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish 11,6 mlrd. so‘mni tashkil etib 5,9 mlrd. so‘mga kamaygan va jami ishlab chiqaradigan sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 0,2 %ni tashkil etdi.*




## To‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati




*Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021-yilning yanvar-mart oylarida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish 1632,7mlrd. so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, uning jami ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 34,5 %ni tashkil etgan.*

*Shuningdek, 2022-yilning yanvar-mart oylarida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish 2430,7 mlrd. so‘mni tashkil etdi va jami ishlab chiqariladigan sanoatdagi ulushi 41,9 %ni tashkil etdi va 7,4 punktga ko‘paydi .*

## Kiyim ishlab chiqarish sanoati

*2021-yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko‘ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 3,5 %ni yani jami 167,1 mlrd so‘mni tashkil etgan, 2022-yilning yanvar-mart oylarida kiyim ishlab chiqarish ulushi 3,4%ni tashkil etib 195,0 mlrd. so‘mga tengdir. Farg‘ona viloyatida kiyim ishlab chiqarish o‘tgan 2021-yilning mos davriga nisbatan 27,9 mlrd. so‘mga ortgan.*



## Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish (farmasevtika)

*2021-yilning yanvar-mart oylari yakunlariga koʻra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish 4,1 mlrd. soʻmni, ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,2 %ni tashkil etgan.*

*Shuningdek, 2022-yilning yanvar-mart oylarida Fargʻona viloyati boʻyicha 11,3 mlrd. soʻmlik mahsulot ishlab chiqarilib jami ishlab chiqariladigan sanoatdagi ulushi 0,2 %ni, tashkil etdi.*




## Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish




*2021-yilning yanvar-mart oylari yakunlariga koʻra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari 585,5 mlrd. soʻmni tashkil etib jami ishlab chiqariladigan sanoatining 12,3 %ni tashkil etgan.*

*Shuningdek, 2022-yilning yanvar-mart oylarida koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish 2,7 mlrd. soʻmga koʻpayib, 582,8 mlrd. soʻmni tashkil etdi.*

## Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

*2021-yilning yanvar-mart oylari yakunlariga koʻra, rezina va plastmassa buyumlar sanoatdagi ulushi 1,4 %ni yani 67,0 mlrd. soʻmni tashkil etgan.*

*Shuningdek, 2022-yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoat oʻtgan yilga nisbatan 2,8 mlrd. soʻmga koʻpaygan va 69,8 mlrd. soʻmni tashkil etdi.*



## Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan 2022-yil yanvar-mart oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 395,5 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 6,3%ini) tashkil etadi.

2022-yilning yanvar-mart oylarida, sanoatning mazkur tarmog‘ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug‘ bilan ta’minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 90,8 mlrd so‘mga ko‘payganligi kuzatildi.




### Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2021-yil yanvar-mart | 2022-yil yanvar-mart | Farqi (+/-) |
|---|---|---|---|
| Elektroenergiya, mln.kVt.s | 100,0 | 101,5 | 1,5 |
| Issiqlik energiyasi, ming gkal | 502,5 | 399,8 | -102,7 |

## Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 43,8 mlrd so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,7 %ini) tashkil etdi.




| Sanoat mahsulotlari | 2021-yil yanvar-mart | 2022-yil yanvar-mart | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Oqova suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar, *mlrd.so‘m*** | 3,0 | 5,6 | 2,6 |
| **Axlat o‘ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo‘shatish, tozalash va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar, *mln.so‘m*** | 4,8 | 4,9 | 0,1 |

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan oqova suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar 4,1 mlrd. so‘m yoki 17,4 %ga ortganligi kuzatildi. Shuningdek axlat o‘ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo‘shatish, tozalash va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar 6,8 mird. so‘m 73,1%ga ko‘paygan.

## Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

*Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 1435,9 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2021-yilning mos davriga nisbatan 92,5%ni, uning jami sanoatdagi ulushi 22,9%ni tashkil etdi.*

### Oziq-ovqat mahsulotlari

| | |
|---|---|
| 2021-yil yanvar-mart | 47,2% |
| 2022-yil yanvar-mart | 46,4% |

### Nooziq-ovqat mahsulotlar

| | |
|---|---|
| 2021-yil yanvar-mart | 52,8% |
| 2022-yil yanvar-mart | 53,6% |

*Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari 11,4 mlrd so'mni tashkil etdi. Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qo'qon shahriga to'g'ri kelib 17,0%ni va Farg'ona shahrida 12,9%ni tashkil etdi.*

## Hududlar bo‘yicha iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*Hududlar kesimida iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatdagi jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qo‘qon shahriga to‘g‘ri kelib, 243,8 mlrd. so‘mni yoki jami iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarishning 17,0 %i, Farg‘ona shahrida 184,6 mlrd so‘mni jami iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarishning 12,9 %i shuningdek, Toshloq tumanida 162,9 mlrd. so‘mlik, 11,3 %ni tashkil etdi.*




**1 551,6** *mlrd. so‘m*

*2021-yil yanvar-mart*

**1 435,9** *mlrd. so‘m*

*2022-yil yanvar-mart*




Jami sanoat ishlab chiqarish hajmida iste’mol mahsulotlarining ulushi

**2021-yil** **104,8%**

**2022-yil** **92,5%**

## Farg‘ona viloyati hududlari kesimida Sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

*Hududlar kesimida sanoat ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Farg‘ona shahriga to‘g‘ri kelib, 23,1%ni, shuningdek, Qo‘qon shahri 18,2%ni, Toshloq tumani 15,4%ni, Uchko‘prik tumani 5,2% tashkil etdi.*

### Farg‘ona viloyati

**2021-yil**
*5012,6 mlrd. so‘m*

**2022-yil**
*6266,5 mlrd. so‘m*

*yanvar-mart*



**2021-yil** 95,2%

**2022-yil** 106,6 %



## Hududlar bo‘yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining Farg‘ona viloyati jami hajmidagi eng yuqori ulushi Toshloq tumaniga to‘g‘ri kelib, 19,5% shuningdek, Qo‘qon shahri 19,1 %, Farg‘ona shahri 13,9 %ni tashkil etadi.*

**819,7** *mlrd. so‘m*

*2021-yil yanvar-mart*

**769,2** *mlrd. so‘m*

*2022-yil yanvar-mart*




Jami iste’mol mollari ishlab chiqarish hajmida nooziq-ovqat mahsulotlarining ulushi

**2021-yil** 111,1 %

**2022-yil** 93,8 %



## Hududlar bo‘yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining Farg‘ona viloyati jami hajmidagi eng yuqori ulushi Uchko‘prik tumaniga to‘g‘ri kelib 15,7 %ni, shuningdek, Qo‘qon shahri 14,5% ni, Farg‘ona shahri esa 11,7 %ni tashkil etdi.*




*o‘sish sur’ati* *mlrd. so‘m*

***731,8*** *mlrd. so‘m*
*2021-yil yanvar-mart*

***666,7*** *mlrd. so‘m*
*2022-yil yanvar-mart*




Jami iste’mol mollari ishlab chiqarish hajmida oziq- ovqat mahsulotlarining ulushi

**2021-yil** **95,7 %**

**2022-yil** **91,1 %**

## Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

*Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Farg‘ona shahrida (4824,8 ming so‘m), Qo‘qon shahrida (4390,1 ming.so‘m) hamda Toshloq tumanida (4601,8 ming.so‘m) ,Quvasoy shahrida (2941,1 ming so`m),Uchko‘prik tumanida (1379,3 ming so‘m).*




### Farg‘ona viloyati

2021-yil — 1330,2 ming. so‘m

2022-yil — 1604,8 ming. so‘m



2021-yil — 93,5%

2022-yil — 104,5%

## Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish

*Farg‘ona viloyati bo‘yicha aholi jon boshiga iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 367,7 ming so‘m bo‘lgani holda, Qo‘qon shahrida – 936,6 ming so‘mni, Toshloq tumanida 774,5 – Uchko‘prik tumanida 676,9 – Farg‘ona shahrida 615,4 ming so‘mni, tashkil etdi.*

### Farg‘ona viloyati

**2021-yil**

551,2 ming. so‘m

**2022- yil**

367,7 ming. so‘m



102,9 %

2021-yil

90,7 %

2022-yil




*ming. so‘m*

## Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

*2022-yilning yanvar -mart oylarida %da*

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 2190,5 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 35,0 %ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida viloyatdagi Beshariq, So‘x, Furqat, Yozyovon tumanlari va Marg`ilon shahri sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish 100% kichik tadbirkorlik subyektlari hisobiga tashkil etilgan . Kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Uchko‘prik tumani (78,0%), Bag‘dod numani (79,9%), Buvayda tumani (83,3%),Dang‘ara tumani (47,5%), Rishton tumani (42,7%),tashkil etgani holda eng past ulushli hududlar Toshloq tumani(9,4%),Fargona tumani (9,1%), Quva tumani (22,3%), sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hudularda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.



## Farg‘ona viloyatida faoliyat ko‘rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda Farg‘ona viloyatida 10650 ta sanoat korxonalari ro‘yxatdan o‘tgan bo‘lib ulardan 10056 faoliyat ko‘rsatmoqda, shundan 1411 tasi (faoliyat ko‘satayotgan korxonalar umumiy sonining 14,0 %) Qo‘qon shahriga, 1155 tasi (11,5%) Farg‘ona shahriga, 1041 tasi (10,4 %) Marg‘ilon shahriga, 672 tasi (6,7%) Uchko‘prik tumaniga, 597 tasi (5,9 %) O‘zbekiston tumaniga, 557 tasi (5,5 %) Dang‘ara tumaniga to‘gri kelmoqda.




### Jami yangi tashkil etilgan

**2021-yil** — 627 dona

**2022-yil** — 417 dona



### Jami faoliyat yuritayotgan

**2021-yil** — 9351 faol dona

**2022-yil** — 10056 faol korxona

## Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturining amalga oshirilishi

*Respublikada sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori oʻsish sur’atlariga erishishda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturining amalga oshirilishi ham oʻz ta’sirini koʻrsatdi. Mazkur dastur doirasida kiritilgan 119 ta loyiha boʻyicha 357,1 mlrd. soʻmlik mahsulotlar ishlab chiqarildi. Mahalliylashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlardan 4,4 mln. AQSH dollari miqdorida eksport qilindi.*

| | **2021-yil** | **2022-yil** |
|---|---|---|
| **Loyihalar soni**, *birlikda* | 97 | 130 |
| **Korxonalar soni,** *birlikda* | 73 | 119 |
| **Ishlab chiqarish hajmi,** *mlrd. soʻm* | 1521,0 *mlrd. soʻm* | 357,1*mlrd. soʻm* |
| **Yaratilgan yangi ish oʻrinlari,** *birlikda* | 462 | 436 |

*Mahalliylashtirish dasturi doirasida 2022-yilning yanvar-mart oylarida 436 ta yangi ish oʻrinlari yaratildi oʻtgan yilning mos davri bilan taqqoslaganda yangi tashkil etilgan ish oʻrinlari soni kamayganligi kuzatildi.*